

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

SAVUROVA SHAHRIZODA ABDUMALIK QIZI

**TEXNOLOGIYA TA’LIMI VA UNI
O‘QITISH METODIKASI**
(uslubiy qo‘llanma)

**Oliy o‘quv yurtlarining 60110500 - Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
talabalari uchun mo‘ljallangan**



CHIRCHIQ – 2025

UDK:

Sh.A.Savurova

Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi.

Uslubiy qo'llanma. 2025. – 65 bet.

Mazkur uslubiy qo'llanma oliy ta'lim muassasalarining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida belgilangan «Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi» o'quv fani dasturi asosida tuzilgan. Texnologiya darslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida zamonaviy usul va vositalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topgan.

Uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar: **M.G'. Mo'minjonova** – TIPI “Pedagogika, psixologiya va boshlang'ich ta'lim” kafedrasi dotsenti

D.O.Ximmataliyev – Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori

Mazkur uslubiy qo'llanma Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Pedagogika, psixologiya va boshlang'ich ta'lim” kafedrasining 27 yanvar dagi 6-sonli bayonnomasi bilan muhokamadan o'tkazilgan.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti O'quv-uslubiy Kengashining 20 fevral dagi 5-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etildi.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida barcha sohalarni tubdan isloh qilish siyosati olib borilmoqda. Hozirda dunyo shiddat bilan rivojlanib taraqqiy etar ekan, biz ham zamon bilan hamnafas bo'lmog'imiz zarur. Prezidentimizning odilona siyosatlari va tashabbuslari bilan ta'lim sohasini ham tubdan isloh qilishga erishilmoqda. Bunga birgina O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni dunyoning rivojlangan davlatlarining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlarini o'rganib chiqib bizning millatimizga, mintalitetimizga mos qilib andoza olish va bu bilan rivojlangan davlatlarning taraqqiyot yo'lini mamlakatimizdagi islohatlarda o'z aksini toptirishdir.[1]

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida tayyorlashda Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi fani ham ustuvor vazifalarni bajarishda salmoqli o'rinni egallaydi. Mazkur fan orqali bo'lajak mutaxassis o'qituvchilar fanining asosiy ilmiy-nazariy va amaliy natijalariga asoslangan holda o'quvchilarga mehnatsevarlik, intizom, masuliyat, burch hissi, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish malakasiga ega bo'ladilar. Hamma vaqtlarda ham yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib dunyo xalqaro reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan [2].

Texnologiya darslarini tashkil etishda o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni mustaqil bilim olishga tizimli o'rgatib borishdan iborat bo'lib, ularni ongli, maqsadli natijaga erishishga yo'naltirishdan iborat

O'zbekiston Respublikasining —Harakatlar strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari alohida o'rin egallaydi. Harakatlar strategiyasidan ko'zlangan asosiy maqsad – O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha yoshlar uchun 2017-2021-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasiga yanada kengroq jalb qilishdir. Talim sohasidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo'lib O'zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, shunga javoban bu ishni samarali va amaliyotga joriy etishda natijaviylikka e'tiborni qaratamiz. Texnologiya va uni o'qitishi metodikasi fani pedagogika, psixologiya, tasviriy san'at, tabiatshunoslik fanlari bilan bog'lanadi. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishi asosida ularni to'garak ishlariga, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganishi va ommalashtirishga, mustaqil ishlar, ma'ruzalar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishi yozishga jalb qilish tavsiya etiladi. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fani ta'lim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beriladi. O'quvchilarni amaliy ishga tayyorlash va ularni mehnat malaka va ko'nikmalarini egallashlarini ta'minlaydi. Texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o'quvchilarning aqliy o'sishida eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Talabalarning fanni o'zlashtirish jarayonida darsliklar,

o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, texnik vositalardan unumli foydalanish, uzatish qurilmalari yordamida slaydlardan va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanishda pedagogik texnologiya yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni va ta'limiy o'yinlarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Fanni o'qitishdan maqsad — talabalarni boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifalari — boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining asosiy vazifalari o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, bilim berish va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasblar haqida ma'lumot berish izchilligini takomillashtirish, Davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat. Qo'llanmada har bir amaliy mashg'ulotlarning mavzusi, unga tayyorlanish jarayonida talaba bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, metodik ko'rsatmalar va eng muhim nazariy manbalar keltirilgan. Ushbu qo'llanmada fan dasturidan kelib chiqib berilgan ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan amaliy mashg'ulotlar mazmuni va mashg'ulotlar uchun qo'shimcha materiallar berilgan.

Mazkur uslubiy qo'llanma barcha berilgan talablar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya fani o'qituvchilari uchun qo'llanma sifatida tavsiya qilinadi.

1 – AMALIY MASHG‘ULOT

Mavzu: QOG‘OZNI MURAKKAB USULDA BUKLAB MAKETLAR YASASH

1. Mashg‘ulotning maqsadi:

- talabalarga qog‘ozni murakkab usulda buklash texnikalarini o‘rgatish.
- qog‘ozdan maket yasash ko‘nikmalarini shakllantirish.
- o‘quvchilarning badiiy-estetik didini rivojlantirish va mayda motorikasini shakllantirish.

2. Mashg‘ulotning o‘quv vazifalari:

Nazariy: Qog‘oz buklashning asosiy tamoyillari va texnikasi bilan tanishtirish.

Amaliy: Qog‘ozni murakkab usulda buklab turli shakllar yasash.

- tarbiyaviy: Talabalarda mustaqil ijod qilish, aniqlik va sabr-toqatni rivojlantirish.

3. Kerakli jihozlar va materiallar:

- qog‘oz (oq va rangli)
- chizg‘ich, qalam, o‘tkir pichoq yoki qaychi
- yelim va ikki tomonlama skotch
- sxemalar va namunalar

4. Mashg‘ulotning borishi:

1-bosqich. Kirish (15 daqiqa)

- mavzu va mashg‘ulotning maqsadi bilan tanishtirish.
- qog‘ozni buklash san’ati haqida qisqacha ma’lumot berish.
- murakkab buklash texnikalarining amaliyotdagi ahamiyatini tushuntirish.

2-bosqich. Asosiy qism (50 daqiqa)

- qog‘ozni buklash asoslari: turli chiziqlar bo‘yicha buklash (tog‘, vodiy, diagonal, yulduzcha bukish).
- murakkab maket yasash bosqichlari:
- oddiy shakllarni yaratish (uchburchak, to‘rtburchak, konus, silindr).
- murakkab modellar (uy, mashina, ko‘prik, hayvon shakllari) yasash.

- buklash va kesish texnikalarini birlashtirib ishlash.
- talabalarga individual topshiriqlar berish va nazorat qilish.

3-bosqich. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)

- tayyorlangan maketlarni ko‘rib chiqish va baholash.
- mashg‘ulot natijalari bo‘yicha xulosa chiqarish.
- talabalarning fikr-mulohazalarini tinglash va tavsiyalar berish.

5. Baholash mezonlari:

- ishning aniqligi va to‘g‘riligiga qarab.
- murakkab texnikalarni qo‘llash darajasi.
- estetik ko‘rinishi va kreativ yondashuv.

6. Uyga vazifa:


- mustaqil ravishda murakkab qog‘oz maket yasab kelish.
- turli maket yaratish usullari haqida qo‘shimcha ma’lumot o‘rganish.


Bu amaliy mashg‘ulot orqali talabalar qog‘ozdan murakkab shakllar yaratish bo‘yicha chuqur ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.





Qog‘ozidan Tovus yasash texnologik xaritasi



Rasm - 1.1.

T/r	Ishning borishi:	Kerakli asbob va moslamalar:	Andozalar:
1	Qogʻozdan Tovus yasash uchun rangli qogʻozi kerak boʻladi. Qogʻoz 26x13 sm boʻlishi kerak. Oʻrtasidan 2 ga buklaymiz 2 qavatli 13x13 boʻladi. Qogʻozni ochamiz 2 ta kvadrat boʻlak hosil boʻladi.	Chizgʻich va qaychi;	
2	Yarimini toʻgʻri uchburchak hosil qilib buklaymiz. Keyin yana ochamiz va 2- tomonga ham huddi shunday buklaymiz. Yana ochamiz bir tomoni toʻgʻri bir tomonida x belgili chiziq hosil boʻladi.	Chizgʻich	
3	26x13 sm qogʻozimizni endi 6,5x26 sm qilib buklaymiz. Yana ochamiz. Buklaganda faqat bir tomoniga qilib ichkariga buklanadi.	Chizgʻich	
4	Yuqorida buklayotgan tomonini tashqariga qilib buklaymiz 6,5x13 sm li boʻladi yana ochamiz. Shu buklaganimizdan ichkariga kirgizamizda 2	Chizgʻich	

	tomoni uchburchak qilib olamiz		
5	Ichidagi to'g'ri burchakli uchburchakni o'rtasini belgilab 2 yonini qayirib olamiz huddi uchi cho'ziqroq rombgga o'xshash shakl, uni tagida yana o'rtasi tomon 2 ta to'g'ri burchakli uchburchak yasaymiz. Ochsak ichkarida yana romb bo'ladi. Uni qo'yib yana shuni shakl yasaymiz 2 tomoni uchburchak edi.	Chizg'ich	
6	Uchi cho'zinchoq rombnii ichkariga qarab ochsak, rasmda keltirilgandek ko'rinishga keladi keyin rasmdagi pastdagi 2 oyoqchasiga o'xshash figurani 2 tomonga qaratib tashqariga ochamiz	Chizg'ich	
7	Eng pastdagi uchburchakni huddi samalyot kabi ichkariga qarab 2 tomonidan buklaymiz. Boshida o'rtasidan buklagan edik shuni yaxshilab buklab olamiz	Chizg'ich	

8	Buklaganimizni yana oʻrtasidan buklaymiz. Oldin ichkariga tomon	Chizgʻich	
9	Buklaganimizni yana oʻrtasidan buklaymiz. Keyin tashqariga tomon	Chizgʻich	
10	Buklaganimizni yana oʻrtasidan buklaymiz. Huddi zinapoya singari boʻladi	Chizgʻich	
11	Buklaganimizni yana oʻrtasidan buklaymiz. Eng mayda holatiga kelguncha buklanadi.	Chizgʻich	
12	Keyin tashqi tomoniga oʻtamiz, buklashni boshlagan joyni oʻrtasidan 2 chetiga qarab buklaymiz. Huddi rasmdagidek belgilab olamiz	Chizgʻich	

13	Buklamalarni yig'ib chiqamiz. Zinapoya shaklimizni teng 2 ga ajratamiz va Buklaymiz.	Chizg'ich	
14	Tovusning patlariga endi o'xshadi, faqat patlari ochiq shuning uchun kleylab yopishtirib olamiz. Uchini yana uchburchak shaklida buklaymiz yana tashqariga qarab chiqaramiz.	Chizg'ich va kley	
15	Endi tovus tayyor bo'ldi mana	Chizg'ich	

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Qog'ozdan «Lola guli» maketini yasash texnologiyasini o'rganish.
2. Qog'ozdan «Stakan» maketini yasash texnologiyasini o'rganish.
3. Qog'ozdan «Quyuncha» maketini yasash texnologiyasini o'rganish.
4. Qog'ozdan «Ko'ylakcha» maketini yasash texnologiyasini o'rganish.
5. . Qog'ozdan «Kuchukcha» ko'rsatmali quroli texnologiyasini o'rganish.

2 – AMALIY MASHG‘ULOT

Mavzu: TURLI MATERIALLARDAN ARCHA BEZAKLARINI YASASH

1. Mashg‘ulotning maqsadi:

- talabalarga turli materiallardan archa bezaklari yasash texnologiyasini o‘rgatish.

- qo‘l mehnati orqali ijodiy fikrlash va badiiy estetik didni rivojlantirish.

- yangi yil bezaklari tayyorlash orqali milliy va xalqaro bayram an‘analarini o‘rganish.

2. Mashg‘ulotning o‘quv vazifalari:

Nazariy: - archa bezaklari yasashda foydalaniladigan materiallar va texnikalar bilan tanishtirish.

- bezaklarni mustahkam va estetik jihatdan chiroyli tayyorlash usullarini tushuntirish.

Amaliy: - har xil materiallardan archa bezaklari yasash texnikasini o‘rgatish.

- Talabalarning badiiy didini rivojlantirish va ularni ijodiy ishga jalb qilish.

Tarbiyaviy: - mustaqil ishlash, hamkorlikda ijod qilish va sabr-toqatni shakllantirish.

- ekologik toza materiallardan foydalanishga rag‘batlantirish.

3. Kerakli jihozlar va materiallar:

- rangli qog‘oz, karton

- matolar, iplar, to‘qimachilik materiallari

- yelim, ikki tomonlama skotch, qaychi

- bezaklar (yorqin qog‘oz, toshchalar, tugmalar, sharcha va lenta)

- plastik yoki yog‘och materiallar

- qor uchqunlari va yulduz shakllari tayyorlash uchun shablonlar

4. Mashg‘ulotning borishi:

1-bosqich. Kirish (15 daqiqa)

- mavzu va mashg‘ulotning maqsadi bilan tanishtirish.

- archa bezaklarining tarixi va bayramdagi ahamiyatini tushuntirish.

- bezak yasash texnologiyasi bo'yicha qisqacha tushuntirish berish.

2-bosqich. Asosiy qism (50 daqiqa)

- bezaklar tayyorlash texnikasi:

- qog'ozdan bezak yasash: Origami, kesish va buklay texnikalaridan foydalanish.

- matodan archa bezaklari: Yelim yordamida shakllar yasash yoki tikish.

- plastik va yog'ochdan yasash: Har xil bo'yoqlar va naqshlar ishlatish.

- ekologik materiallardan foydalanish: Yaproq, novda, qobiqlar va boshqa tabiiy materiallar bilan ishlash.

- talabalarining amaliy ishi:

- har bir talaba o'ziga yoqqan texnika orqali archa bezagi yasaydi.

- yarim tayyor mahsulotlar yoki shablonlar yordamida murakkab modellar yaratish.

- ish jarayonida o'qituvchi yordam va maslahat beradi.

3-bosqich. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)

- tayyorlangan archa bezaklarini ko'rib chiqish va muhokama qilish.

- har bir ishga baho berish (chiroyliligi, mustahkamligi, ijodiy yondashuv darajasi).

- o'zaro fikr almashish va mashg'ulot yuzasidan xulosa chiqarish.

5. Baholash mezonlari:

- ishning aniq bajarilishi va mustahkamligi.

- bezakning estetik va kreativ jihatdan yondashuvi.

- mustaqil ishlash va yangi texnikalarni qo'llash darajasi.

6. Uyga vazifa:

- uy sharoitida turli materiallardan yangi yil archa bezaklari yasab kelish.

- yangi yilda uy yoki sinf xonasini bezash uchun ijodiy loyiha tayyorlash.

Bu mashg'ulot talabalar uchun qiziqarli va ijodiy bo'lib, ular bayramona kayfiyat bilan o'z mahoratlarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Foamiran qog'ozidan Archa o'yinchog'ini yasash texnologik xaritasi (2,1-jadval):



Rasm - 2.1.

Jadval - 2,1.

T/r	Ishning borishi:	Kerakli asbob va moslamalar:	Andozalar:
1	Archa o'yinchog'ini tayyorlash uchun 2mm qalinlikdagi 2 xil rangli Foamiran qog'ozi kerak bo'ladi. 2 xil rangli 2 ta qog'ozdan 4 ta Archa o'yinchog'i yasash mumkin.	santimetr lenta va qaychi;	
2	Foamiran qog'ozini qizil rangini olib 1x9,5 sm tayoqcha ya'ni to'g'rito'rtburchak qilib kesib olamiz. 9 ta tayoqcha tayyorlaymiz.	santimetr lenta va qaychi;	

3	Foamiran qog'ozini oq rangini olib 1x9,5 sm tayoqcha ya'ni to'g'rito'rtburchak qilib kesib olamiz. 9 ta tayoqcha tayyorlaymiz.	santimetr lenta va qaychi;	
4	Tayoqcha ya'ni Foamiran qog'ozidan tayyorlangan to'g'rito'rtburchak shaklidagi bo'lakchani har ikki uchidan o'rtasiga qarab 1,5 sm qilib belgilab olamiz	santimetr lenta, qalam va qaychi;	
5	Hamma Tayoqchani ya'ni 2 xil rangdan 9 tadan 18 tani belgilangan joyidan uchining o'rtasigacha qaychida qirqamiz 2 tomonidan ham. Shunda tayoqchamiz boshqa shakl oladi.	santimetr lenta, andoza, chizg'ich va qaychi;	
6	Tayyorlangan bo'lakchamiz ya'ni tayoqchamizning uchi uchqur bo'ladi. Tayyorlash jarayonida 1 tasini andoza sifatida ishlatib qolganlarini shundan bostirsak bo'ladi.	santimetr lenta, andoza, chizg'ich va qaychi;	
7	Foamiran qog'ozdan 5x5 sm qilib kvadrat, 5x1 sm qilib tayoqcha tayyorlab olamiz.	santimetr lenta, pistalet kley, chizg'ich va	

		qaychi;	
8	Ularni pistalet kley yordamida silindr shaklini yasab olamiz va keyin silindrni ikki uchini ham dumaloq foamiran qog'oz bilan yopamiz.	santimetr lenta, pistalet kley, chizg'ich va qaychi;	
9	Tayyor silindr shaklimizga uchi uchqur qilib kesib olingan 2 xil rangli 9 tadan jami 18 tani silindrning uchiga ikki tomonga yopishtiramiz.	santimetr lenta, pistalet kley va chizg'ich	
10	Silindrning ikki uchiga yopishtirgan uchli tayoqchalarimiz huddi qor parcha kabi bo'ladi yon tomondan qaraganda huddi g'ildirak misoli.	santimetr lenta, pistalet kley va chizg'ich	
11	Har ikki tomondagi uchi uchqur tayoqchalarni bir-birlari tomonga qarama-qarshi qilib yopishtiramiz. Bunda 2 xil rangda ular oqni qizil tomonga qizilni oq tomonga. Yuqorida silindrni uchiga qanday yopishtirgan bo'lsak shunday yopishtiramiz	santimetr lenta, pistalet kley va chizg'ich	

12	Tayyor natijamiz huddi koptok kabi yoki shar, to'pga o'xshaydi. Ikki tomondan 2 xil rangli tovlanadi. Archa o'yinchog'iga ham o'xshaydi.	santimetr lenta, pistalet kley va chizg'ich	
13	Foamiran qog'ozdan 2x7 sm qilib to'g'rito'rtburchak qilib tayoqcha tayyorlab olamiz. Keyin uni o'rtasidan buklab yopishtiramiz. Shunda u 1x7 sm li bo'ladi.	santimetr lenta, pistalet kley va chizg'ich	
14	Archa o'yinchogimizni ushlagichini ipdan qilamiz. 26 sm ipni 4 qavat qilsak, 6,5sm bo'ladi. Uni 1x7 smli tayoqcha ichiga solib kulchadek o'raymiz. O'yinchoqni ushlagichi 5,5 smli bo'ladi.	santimetr lenta, pistalet kley va chizg'ich	
15	Eng oxiri tayyor koptokchamizga kulcha misol o'yinchoq ushlagichimizni yopishtiramiz. Silindrni hoh u hoh bu uchi bo'lsin ranggi tushsa bo'ldi. Archa o'yinchog'imiz tayyor.	santimetr lenta, pistalet kley va chizg'ich	

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Foamiran qog'ozidan boshqa rangdagi va xildagi archa bezagini yasash.
2. Rangli qog'ozlardan archa uchun bezaklar yasash texnologiyasi.

3 – AMALIY MASHG‘ULOT

Mavzu: ERTAK QAHRAMONLARI ASOSIDA SUJETLI APPLIKATSIYA TAYYORLASH

1. Mashg‘ulotning maqsadi:

- talabalarga ertak qahramonlari asosida sujetli appliaktsiya tayyorlash texnikasini o‘rgatish.
- o‘quvchilarning tasviriy san’at va ijodiy tafakkurini rivojlantirish.
- applikatsiya san’atidan foydalanib, vizual kompozitsiya yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. Mashg‘ulotning o‘quv vazifalari:

Nazariy: - applikatsiya san’ati haqida tushuncha berish.

- syujetli applikatsiyaning asosiy xususiyatlarini tushuntirish.
- ertak qahramonlarini aks ettirish usullari bilan tanishtirish.

Amaliy: - qog‘oz, mato, tabiiy materiallar yordamida syujetli applikatsiya yaratish.

- kompozitsiya yaratish va ranglarni to‘g‘ri tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

- ijodiy yondashuv va dizayn ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tarbiyaviy: - ertak qahramonlari orqali milliy qadriyatlarni singdirish.

- talabalarda mustaqil ijod qilish va guruh bo‘lib ishlash madaniyatini shakllantirish.

- chiroyli bezak va tasviriy san’at orqali estetik didni rivojlantirish.

3. Kerakli jihozlar va materiallar:

- rangli qog‘oz, karton
- matolar, jun va iplar
- yelim, qaychi, ikki tomonlama skotch
- bo‘yoq va flomasterlar
- tayyor shablonlar va namunalar

4. Mashg‘ulotning borishi:

1-bosqich. Kirish (15 daqiqa)

- mavzu va mashg'ulotning maqsadi bilan tanishtirish.
- applikatsiya san'ati va uning turlari haqida tushuncha berish.
- talabalarga ertaklardan tanish bo'lgan qahramonlar haqida muhokama o'tkazish.

- syujetli applikasiyaning asosiy tamoyillarini tushuntirish.

2-bosqich. Asosiy qism (50 daqiqa)

- ish jarayonining bosqichlari:
 - tanlangan ertak syujetiga qarab qahramonlarni aniqlash.
 - applikatsiya uchun zarur materiallarni tayyorlash.
 - qahramonlarni rangli qog'oz yoki matodan kesib olish va joylashtirish.
 - syujet bo'yicha fon yaratish (o'rmon, qasr, bog' va boshqalar).
 - mayda detallarga e'tibor qaratish (yuz ifodalari, kiyim elementlari, manzara).

- yelim yordamida barcha qismlarni joylashtirib, applikasiyani yakunlash.
- talabalar o'zlari mustaqil yoki jamoaviy ravishda ertak syujeti asosida applikatsiya tayyorlaydi.

- o'qituvchi ish jarayonini kuzatib boradi va kerakli maslahatlarni beradi.

3-bosqich. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)

- tayyor ishlanmalarni ko'rib chiqish va baholash.
- har bir talabaga o'z ishi haqida fikr bildirish imkoniyatini yaratish.
- syujetli applikatsiyalarni ko'rgazmaga qo'yish.
- mashg'ulot yuzasidan xulosa chiqarish va talabalarning fikrlarini tinglash.

5. Baholash mezonlari:

- syujetning aniqligi va kreativ yondashuv.
- materiallardan to'g'ri foydalanish va mustahkamlik.
- ishning estetika va bezak jihatdan to'g'ri bajarilishi.
- mustaqil ishlash darajasi va g'oyaning ifodaviyligi.

6. Uyga vazifa:


- mustaqil ravishda ertak syujeti asosida yangi applikatsiya yaratish.
- o'z applikasiyasiga qisqa ertak matnini yozish.

Bu mashg'ulot talabalarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni ijodiy faoliyatga jalb qiladi.

Predmetli applikatsiya - bolalar qog'ozdan qirqish va fonga alohida predmet tasvirlarini yopishtirish mahoratini o'zlashtiradilar. Faoliyat xususiyatiga ko'ra atrofdagi predmetlarni ancha umumlashgan shartli tasviriy o'yinchoqlar, xalq amaliy san'ati namunalarida ifodalash mumkin bo'ladi.



Rasm - 3.1



Rasm - 3.2



Rasm - 3.3

Boshlang'ich bosqichda tarbiyachi-pedagog tayyorlagan qismlardan predmetni yelimlaydi: - turli rangdagi ikkita koptok, yarimta bo'laklar, qo'ziqorinqalpokcha va oyoqcha; aravacha - to'rtburchak asos va dumaloq g'ildiraklar. Bolalar shakli, tuzilishi, ranglar birikmalari, hajmi, farqlangan predmetlarni tasvirlashlari mumkin.

Predmetli applikatsiya uchun katta hajmdagi materiallarni tanlash kerak bo'ladi. Masalan, uzumning katta barglari, eman, zarang, tog' terak, kashtanning katta barglari yoki tut barglari bo'lishi ham mumkin.

Dekorativ applikatsiya- turli bezaklar hosil qilish bilan bog'lik bo'lgan faoliyat turi. Dekorativ applikatsiyada bolalar qirqish mahoratini



Rasm - 3.4.



Rasm - 3.5.

ritm, simmetriya bo'yicha turli rang birikmalarini turli bezak elementlarini birlashtirish, qirqish mahoratini o'zlashtiradilar.



Rasm - 3.6

Bu mashg'ulotlarda bolalar predmetlarni dekorativ stillashtirish, ularni tuzilishiga ahamiyat berish, namunalarni yangi sifatlar bilan boyitishni o'rganadilar. Bu mashg'ulotlarda bolalar yana qo'yidagilarni o'rganadi: predmetlarni o'zgartirish, ularning tuzilishini umumlashtirish, namunalarni yangi sifatlar bilan taqqoslash.

Mazmunli applikatsiya - o'z oldiga qiyin masalalarni qo'yadi va ba'zi bir qoidalarni bajarilishini talab qiladi: rang, shakl bo'yicha birbirlariga to'g'ri keladigan tabiiy materiallarni yig'ish kerak. Masalan, barglar va chig'anoklar va mayda toshlar, somon, taxta qipidlari, qurigan shoxchalar, danaklar va hokazolar. Asosiy e'tiborni fon va materiallar rangi mosligiga qaratish lozim.



Rasm - 3.7.

Syujetdagi tasvirlarga asosiy qahramonlarni yorqin rang bilan kompozitsion yechim qilib olish, ya'ni alohida e'tibor qaratish kerak.

Syujetli mavzu applikatsiya syujet yoki mavzu bilan bog'lik predmetlarni yopishtirish va qirqish mahoratini mo'ljallaydi.

Bunda asosan bola oldiga qo'yidagi masalalar qo'yiladi:

- ✓ predmetlarni qirqish, bir-biri bilan taqqoslaganda ularni hajm bo'yicha farqlash;
- ✓ asosiy predmet, asosiy qahramonlar yuzini ko'rsatish, vaziyat va harakat joyi bilan ularni bog'lash.
- ✓ asosiy hajm, rang bilan bo'rttirish;
- ✓ personajlarning fe'l-atvori, o'ziga xosligi va ularning imo- ishora, holati, kiyimi, rangini ko'rsatish;
- ✓ predmetlarni yassi joyda joylashtirish: bir chiziqda, qatorda gorizontal va vertikal bo'yicha predmetlarni bo'yini ko'rsatgan holda.

Har bir guruhda bu masalalar turlicha amalga oshiriladi. Ularning murakkablashishi bilim, mahorat va malaka darajasiga bog'lik, atrofolamning har xilligi turli syujetlarni applikatsiyada aks etishi uchun boy material taqdim etadi.

Kattalarning maqsadi- bu faollikni qo'llash, so'nishiga yo'l qo'ymaslik, unga ijodiy xarakter berishdir. Bolaning faolligi va mustaqilligi rivojlanishi uchun kerakli tasvirlar berib borish lozim. Tasviriy faoliyatda turli materiallar va tasvirlashning texnik usullarini turlicha ko'rinishda bajara olish yo'llarini bolalarga o'rgatish lozim. Shundagina bolalar applikatsiyaning turli usullarini qo'llagan holda obrazlarni tasvirlashda ular o'z kuchiga ishongan holda shug'ullanadilar.

**Tabiiy materiallar
tarbiyachi rahbarligida
ekskursiyalarda to'planadi.**

Ekskursiya uyushtirishdan oldin bolalarga bo'lajak ish namunasi ko'rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko'rib, unda ishlatilgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar.



Rasm - 3.8

Shundan so'ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya marshrutida alohida e'tibor beriladigan obyektlar (eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar) Bolalarning e'tiborlari va faoliyatlarini kuzatilayotgan obyektning zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga, to'planayotgan materialni to'g'ri baholashga yo'llaydigan savollar tuziladi.

Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko'tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Kuzning



go'zalligini, uning ranglarini, to'kilgan barglar hidi va ular o'zining elastiklik xususiyatini yo'qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo'lib qolganligini ko'radilar. Bolalarning atroftabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e'tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi.

Rasm - 3.9.

Ana shu vaqtda o'simliklarda sodir bo'layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli shaklda bayon etib beriladi: jumladan, o'simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko'ryapti. Bolalarning e'tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan hasharotlar ularning tuzilish shakllari mehnat jarayonida hasharotlar applikatsiyasini tayyorlash uchun obrazmaterial xizmatini o'tashi kerak.



Bolalar barglarni to'plar ekanlar, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o'rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligini o'stirishga yordam beradi. To'plangan barglar oldindan tayyorlab qo'yilgan daftar varaqlari orasiga qo'yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashg'ulotlarigacha

Rasm - 3.10.

rangini yo‘qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e‘tibori insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etilishi kerak. Ekskursiya oxirida yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga kapalak va ninachilar tasviri tushirilgan rasmlarni ko‘rish, ularning tanasi va qanotlarining shakli, rangiga alohida e‘tibor berish topshiriladi.

Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi mashg‘ulotda bolalar applikatsiyalarni ishtiyoq bilan namoyish qiladilar, applikatsiyani o‘z istaklariga ko‘ra, o‘zlari to‘plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi. Bunday mashg‘ulot quyidagi tuzilmasiga ega bo‘lishi mumkin.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Applikatsiya usulida barglardan qurish yasash
2. Bo‘g‘irsoq ertagi asosida applikatsiya tayyorlash.
3. “Daraxtlarni kuzgi ko‘rinishi” mavzusida xajmdor applikatsiya tayyorlash
4. Rangli qog‘ozdan mozaika yasash.
5. Fasllar mavzusida applikatsiya tayyorlash.

4-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: ISH FARTUGI VA SUMKANI TIKISH TEXNOLOGIYASI

1. Mashg'ulotning maqsadi:

- talabalarga ish fartugini tikish texnologiyasini o'rgatish.
- o'quvchilarga kiyimlarning sifatini ta'minlash va amaliyotda ishlatiladigan materiallarni tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

- ish kiyimlarining ergonomik va funksional xususiyatlarini tushuntirish.

2. Mashg'ulotning o'quv vazifalari:

Nazariy: - ish fartug'i va uning asosiy xususiyatlari haqida tushuncha berish.

- ish kiyimlarining tikilish usullari va materiallarining turlari bilan tanishtirish.

- fartug'ni tikishda e'tibor berilishi kerak bo'lgan ergonomik va estetik jihatlar.

Amaliy: - fartug'ni tikish uchun zarur bo'lgan materiallarni tanlash va ularni tayyorlash.

- fartug'ni tikish texnikasini o'rganish, zarur asbob-uskunalarni ishlatish.
- tikuvchilik texnikasini amalda qo'llash orqali talabalarga kiyim ishlab chiqarishni o'rgatish.

Tarbiyaviy: - talabalarda ehtiyotkorlik, diqqat va texnologik jarayonni bajarishda mas'uliyatni oshirish.

- kiyim ishlab chiqarishning ahamiyatini tushuntirish, sanoat va kundalik hayotda ishdan foydalanish uchun zaruriy bilimlarni rivojlantirish.

3. Kerakli jihozlar va materiallar:

- matolar (qalin va o'rtacha qalinlikdagi to'qima materiallar)
- ip (tikish uchun)
- qaychi, igna va tasmalar
- fartug'ni tikish shablonlari (o'lchamlar)
- yelim (o'lchash va bezash uchun)
- o'lchov lenta

- fartug‘ni bezash uchun tugmalar, fermuarlar, shkivlar va boshqa aksessuarlar

4. Mashg‘ulotning borishi:

1-bosqich. Kirish (15 daqiqa)

- mavzu va mashg‘ulotning maqsadi bilan tanishtirish.
- ish fartug‘ining vazifasi va uning ishlatilishi haqidagi qisqacha ma’lumot.
- ish kiyimlarini tikishda e’tibor berilishi kerak bo’lgan ergonomik, funksional va estetik jihatlar.

2-bosqich. Asosiy qism (50 daqiqa)

- fartug‘ni tikish jarayonining bosqichlari:

1. Materiallarni tanlash va tayyorlash:

- fartug‘ uchun mos materialni tanlash (to‘qima, rang va paternlar).
- matoni o‘lchash va tayyorlash (ikki qismni birlashtirish uchun to‘g‘ri kesish).

2. Shablon bo‘yicha tikish:

- fartug‘ning asosiy qismlarini belgilash va shablon yordamida kesib olish.
- fartug‘ni tikishning asosiy qismiga kirish: ikki yonni, ko‘krak va bel qismlarini birlashtirish.

3. Bezash va yakunlash:

- fartug‘ni tugmalar, fermuarlar, shkivlar yoki boshqa bezaklar bilan bezash.
- fartug‘ni oxirgi tikuvlar va yakuniy ishlovlar bilan yakunlash.
- fartug‘ni to‘liq tikish va tayyor mahsulotni tekshirish.
- Talabalar mustaqil ravishda o‘z fartug‘ini tikadilar. O‘qituvchi yordam va maslahat beradi.

3-bosqich. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)

- tayyor fartug‘larni ko‘rib chiqish va baholash.
- har bir talabaga o‘z ishi haqida fikr bildirish imkoniyatini yaratish.
- mashg‘ulot natijalari bo‘yicha umumiy xulosa chiqarish va talabalar bilan fikr almashish.

5. Baholash mezonlari:

- fartug'ning to'g'ri tikilganligi va mustahkamligi.
- fartug'ning estetik jihatdan qoniqarli ko'rinishi.
- bezash elementlarining o'rni va ular bilan ishlash malakasi.
- talabaning texnologik jarayonni to'g'ri bajarishi.

6. Uyga vazifa:

- uy sharoitida o'zingizga mos ish fartug'ini yaratib kelish.
- o'rganilgan texnikalarni qo'llab, boshqa kiyimlarni tikish imkoniyatlarini o'rganish.

Bu mashg'ulot talabalarga ish kiyimlari yaratishda zaruriy bilim va ko'nikmalarni berishga yordam beradi, shuningdek, ularni amaliy ishga tayyorlaydi.

Bizning hayotimizda sumkalarining turlari juda ham ko'p bo'lib, gazlamalardan, charmlardan tikilgan sumkalar ko'p uchraydi. Hozirgi texnika asrida kelib, bu sumkalar turli shakllarda, bichimlarda tikib kelinmoqda. Mohir tikuvchilar zamon bilan hamnafas bo'lib ish olib borishmoqda. Sumkalar bizga o'zimga kerakli bo'lgan buyumlarimizni doimo yonimizda olib yurishimiz uchun as qotadi.

Sumkalar quyidagi turlarga bo'linadi: 1.O'qituvchi sumkasi.2.O'quvchilar sumkasi.3.Ishchilar sumkasi. 4.Sayohatchilar sumkasi. 5.To'y –tantanalarda taqadigan sumkalar.6. Olimlar portfeli. Sumkalarni bundan tashqari yana bir qancha turlari mavjuddir.

Hozirgi kunda milliy hunarmandchilik san'atlaridan quroqchilik san'atiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Quroqchilik san'atida yaratilayotgan buyumlar insonning badiiy didini o'stirish bilan birga unda iqtisodiy tarbiyani ham shakllantiradi. Quroqchilik asosida yaratilgan uy jihozlari, oshxona anjomlari, turli xil o'yinchoqlar va galenteriya mahsulotlaridan uy sharoitida kerakli foydalanish mumkin. Quyida quroq asosida tikilgan sumkani bichish texnologiyasi gazlama bo'laklari misolida keltirilgan. Lekin bu sumkani bichish xuddi shu usulda sun'iy charmdan ham tayyorlash mumkin.



Rasm - 4.1.

Sumkani bichish uchun kerakli jihozlar: Stol, stul, sumkani tikish bo'yicha bajarilgan texnologik xarita va tikilgan namunalar, tikuv mashinasi, dazmol, sidirg'a va gulli gazlama bo'laklari, sintefon, igna, angishvona, qaychi, santimetr lenta, gazlama rangiga mos 40,50 –raqamli g'altak iplar, ko'chirish uchun maxsus qalam.


Sumkani bichish uchun kerakli asbob va moslamalar:




Rasm - 4.2.

Sumka bichishning texnologik xaritasi:

Jadval – 4.1.

T/r	Ishning borishi:	Kerakli asbob va moslamalar:	Andozalar:
1	Sumkani tayyorlash uchun 6–7 sm oʻlchamdagi har xil rangli gazlama boʻlaklaridan qirqib olinadi.	Turli xil rangdagi gazlamalar, santimetr lenta, boʻr va qaychi;	
2	Kvadratlar bir-biri bilan uzun tasma shaklida birlashtirib chiqiladi va chok haqini yorib dazmollanadi.	kvadratlar, santimetr lenta, boʻr, dazmol va qaychi;	
3	Soʻngra bu tasmalar oʻzaro birlashtirib tikiladi hamda chok haqi rasmdagidek dazmollanadi.	tikilgan buyum, santimetr lenta, dazmol va qaychi;	
4	22x26 sm oʻlchamda 2 dona quroq boʻlaklari tayyorlab olinadi.	tikilgan buyum, santimetr lenta andoza va qaychi;	
5	Sumka andazasi tayyorlab olinadi.	tikilgan buyum, santimetr lenta, andoza, chizgʻich va qaychi;	

6	Tayyorlangan andazani quroq bo'laklari ustiga qo'yiladi va chok haqi 1 sm qoldirib sumkaning asosiy ustki detalini bichib olinadi.	tikilgan buyum, santimetr lenta, andoza, chizg'ich va qaychi;	
7	Sumkaning asosiy detalidan 0,5 sm dan katta bo'lgan yoki tayyorlangan andaza atrofidan 2,0 sm qoldirib sumkaning astari va sintefon bichib olinadi.	tikilgan buyum, santimetr lenta, andoza, chizg'ich va qaychi;	
8	Sumkaning tasma qismi uchun yaxlit gazlama bo'lagidan 52 x 6 sm o'lchamda olingani ma'qul hisoblanadi.	tikilgan buyum, santimetr lenta, andoza, chizg'ich va qaychi;	

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Ish fartugini tikishda har xil bezaklardan foydalanib tayyorlash.
2. Sumkalarni tayyorlashda munchoqlardan tayyorlash texnologiyalaridan foydalanish.
3. Yangicha fasondagi sumka va fartuklar tayyorlash texnologiyalarini o'rganish.

5-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: GAZLAMADAN QO'G'IRCHOQ TIKISH

1. Mashg'ulotning maqsadi:

- talabalarga gazlamadan qo'g'irchoq tikish texnologiyasini o'rgatish.
- qo'g'irchoq yaratishda badiiy did, rang va shaklni to'g'ri tanlash ko'nikmalarini rivojlantirish.
- qo'g'irchoqning to'g'ri dizayni va konstruksiyasini yaratish orqali ijodiy tafakkur va texnik mahoratni oshirish.

2. Mashg'ulotning o'quv vazifalari:

Nazariy:

- gazlamadan qo'g'irchoq tikish texnologiyasi va uning bosqichlari bilan tanishtirish.
- qo'g'irchoqning tuzilishi, uning qismlari va materiallari haqida ma'lumot berish.
- qo'g'irchoqning funksional va estetik jihatlarini tushuntirish.

Amaliy:

- qo'g'irchoqni yaratishda zarur materiallarni tanlash va tayyorlash.
- gazlama bilan ishlash va uni tikish texnikalarini o'rgatish.
- ijodiy yondashuv orqali qo'g'irchoqni shakllantirish va bezash.

Tarbiyaviy:

- talabalarda mustaqil ishlash, aniqlik va ijodkorlikni oshirish.
- qo'g'irchoq yaratish jarayonida sabr-toqat va diqqatni jamlashni rivojlantirish.
- estetik didni shakllantirish va qo'g'irchoqni sozlash, bezash ko'nikmalarini oshirish.

3. Kerakli jihozlar va materiallar:

- rangli gazlama yoki mato (teriga o'xshash material, ipak, atlas yoki boshqa matolar)
- ip va igna (tikish uchun)
- qaychi, kistachalar (matolarni kesish uchun)

- qo‘g‘irchoq uchun quyuq, engil to‘ldiruvchi materiallar (paxta, sintetik materiallar, jun)

- yelim, tugmalar, ko‘zchalar, tikuvlar uchun bezak elementlari

- o‘lchov lentasi

- qog‘oz yoki shablon (qo‘g‘irchoq shaklini chizish uchun)

4. Mashg‘ulotning borishi:

1-bosqich. Kirish (15 daqiqa)

- mavzu va mashg‘ulotning maqsadi bilan tanishtirish.

- qo‘g‘irchoqning tuzilishi va qismi haqida qisqacha tushuncha berish.

- qo‘g‘irchoq yaratishda foydalaniladigan materiallar va texnikalar haqida ma’lumot berish.

2-bosqich. Asosiy qism (50 daqiqa)

- ish jarayonining bosqichlari:

1. Shaklni yaratish:

- qo‘g‘irchoqning umumiy shaklini qog‘ozda yoki matoda chizib olish.

- qo‘g‘irchoqning asosiy qismlari (bosh, qo‘l, oyoq) shakllarini kesib olish.

2. Qo‘g‘irchoqni tikish:

- chizilgan qismlarni mato ustida belgilab, ularni tikish.

- har bir qismni tikishdan oldin ichki qismini to‘ldirish (paxta, jun yoki sintetik materiallar yordamida).

- tikish jarayonida qo‘g‘irchoqning shaklini saqlashga alohida e’tibor berish.

3. Bezash va yakunlash:

- qo‘g‘irchoqni yuzini chizish (bo‘yoqlar, markerlar yoki boshqa materiallar yordamida).

- qo‘g‘irchoqqa ko‘z, og‘zini yopishtirish, bezak sifatida tugmalar va boshqa aksessuarlarni qo‘shish.

- qo‘g‘irchoqni yakuniy tekshirish va barcha qismlarni mustahkamlash.

– talabalar mustaqil ravishda yoki jamoaviy ravishda o‘z qo‘g‘irchoqlarini yaratadilar. O‘qituvchi yordam va maslahat beradi.

3-bosqich. Yakuniy bosqich (15 daqiqa)

- tayyor qo‘g‘irchoqlarni ko‘rib chiqish va baholash.
- har bir talabaga o‘z ishi haqida fikr bildirishi uchun imkoniyat yaratish.
- mashg‘ulot natijalari bo‘yicha umumiy xulosa chiqarish va talabalar bilan fikr almashish.

5. Baholash mezonlari:

- qo‘g‘irchoqning to‘g‘ri shakllanishi va tikilganligi.
- bezash elementlarining estetik va funksional jihatdan to‘g‘ri qo‘llanilishi.
- materiallardan samarali foydalanish va to‘ldiruvchi materiallarning sifatini tekshirish.
- mustaqil ishlash va ijodiy yondashuv darajasi.

6. Uyga vazifa:


- uy sharoitida boshqa turdagi qo‘g‘irchoqlarni yaratib kelish.
- yangi dizaynlar va bezaklar bilan eksperiment qilib, o‘z qo‘g‘irchoqlarini yaratish.

Bu mashg‘ulot talabalarga gazlamadan qo‘g‘irchoq tikish jarayonini o‘rganish va ularni amaliyotda ishlatishga yordam beradi. Shuningdek, talabalar ijodiy yondashuvni rivojlantiradi va estetik didlarini oshiradi.


Mashg‘ulotni boshlashdan oldin o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun “Aqliy hujum” metodi asosida savollar beriladi.

1. Paralon qanday material?
2. Paralondan qanday o‘yinchoqlar yasash mumkin?
3. Yumshoq o‘yinchoqlarning ichiga nima solinadi?
4. Yumshoq o‘yinchoq turlari qanday?
5. Yumshoq o‘yinchoqlarni tikishda texnika xavfsizligi qoidalarini bilasizmi?

Turli rangdagi paralon olinadi. Undan o‘yinchoq yasash uchun tayyorlanadi.



Rasm – 5.1. O‘yinchoq yasash uchun maxsus pichoqda paralon teng o‘rtasidan kesiladi.



Rasm – 5.2. Paralon ip yordamida bog‘lanib turli shakllar yasaladi.



Rasm – 5.3. Paralondan yasalgan o‘yinchoqlardan namunalar.

Filcha o‘yinchog‘ini tikish texnologiyasi

- Filcha o‘yinchog‘ining andozasini tayyorlashda milimetrli qog‘ozga filchaning har bir detali chiziladi.
- Filchani tana qismining uzunligi 6 sm, eni 8 sm, xartumigacha bo‘lgan qismi 4 sm, ikkita oyoq qismi 2 smdan qilib chizib olinadi va chizilgan andoza qaychi bilan qirqib olinadi, quloq va ko‘z o‘rni belgilab olinadi.


- Filchaning quloqlari uzunligi 3 sm, eni 2sm, bel qismi uzunligi 11 sm, eni 1,5 sm, panja qismi 1,5 sm, dum qismi 2sm o'lchamda chizib olinadi va chizilgan andoza qaychi bilan qirqib olinadi.

- Filcha o'yinchog'i uchun kerakli mato tanlab olinadi. Mato tekislanib dazmollanadi.

- Filcha o'yinchog'ining andozasini matoga tayyorlash uchun tayyor andozalar mato ustiga qo'yib chizib olinadi.


- Andoza qalam bilan belgilanayotgan bo'lsa, to'q matoga andoza oq yoki sariq rangi qalam bilan, och rangdagi matoga qora rangli qalamdan foydalanish tavsiya etiladi.

- Matodagi detallarni qirqishda har tomondan 0,5 sm chok haqi qoldirilib, qirqish kerak.




Rasm – 5.4.

- Filcha o'yinchog'ini tayyorlash uchun bel qismi bitta, o'yinchoqning qolgan detallaridan ikkitadan kerak bo'ladi. Buning uchun andozani bichishda matoni ikkiga buklab qirqilsa har bir detaldan ikkitadan hosil bo'ladi.



Rasm – 5.5.

- Andoza qismlari bir-biriga biriktirib qo'lda tikiladi. Tayyor tikilgan detallar metal tayyoqcha yordamida bilan o'ngiga ag'dariladi. O'yinchoq ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to'ldiriladi.



Rasm – 5.6.

- Qismlari bir-biriga ko'rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. O'yinchoqning ayrim qismlari jihozlanadi va bezatiladi.

Gazlamadan ertak qahramonlarini bichish va tikishning texnologik xaritasi:

Zumrad va qimmat ertagi

Rasm – 5.7.



<i>T/r</i>	<i>Ishning borishi:</i>	<i>Kerakli asbob va moslamalar:</i>	<i>Andozalar:</i>
1	Ertak qahramonlari aynan Zumrad va Qimmat ertagi uchun milliy atlas va adras, beqasam tonlarni tanlab olamiz. 5 ta asosiy qahramonimizning liboslari milliy liboslar hisoblanadi	Turli xil rangdagi gazlamalar, belbog‘lar, santimetr lenta, bo‘r va qaychi;	
2	Ertak qahramonlarini tayyorlash uchun avvalo bosh qismini yasashimiz kerak. Buning uchun andoza olamiz, 30 sm o‘lchamdagi oq rangli gazlama bo‘laklarini qirqib olinadi. Zumrad, Qimmat, Zumratni o‘tasi, Qimmatni onasi va sehrigar kampir	Turli xil rangdagi gazlamalar, santimetr lenta, bo‘r va qaychi;	

3	Bosh qismini yasab olamiz unga soch to'qish uchun ishlatiladigan ipni o'rib tayyorlaymiz. Har bir qahramonni siymosini yaratamiz.	Paxta yoki sitafon, santimetr lenta, bo'r , dazmol va qaychi;	
4	So'ngra tana qismini loyihalab matoga ko'ylakcha qilib bichib tikamiz. Gazlamani 1 belbog' o'lchamda olsak bo'ladi ya'ni 60x60, 80x80, 100x100 va 120x120 sm li bo'ladi siz o'zingiz hohlagan o'lchamni oloishingiz va ko'ylakni shunga moslashingiz mumkin.	tikilgan buyum, santimetr lenta, dazmol va qaychi;	
5	Qo'llarini bosh qismini yasagan matodan yasasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bilamizki, ertak qahramonlarimiz oddiy va sodda qilib ertakda tasvirlangan.	tikilgan buyum, santimetr lenta andoza va qaychi;	

6	Bosh qismi, ko'ylak qismi, qo'llarini yasab bo'lganimizdan keyin ularga paxta yoki sitafon solib tikib olamiz.	Paxta va sitafon, tikilgan buyum, santimetr lenta, andoza, chizg'ich va qaychi;	
7	Hamma qismlarni birlashtirib tikib olamiz. Ko'z, qosh, og'iz, burun, lablar va yuz tana qismidagi ajralib turadigan masalan cholda soqol shu kabi qismlarni tikib olamiz. (Ro'mol, do'ppi, ko'zoynak shu kabilar)	tikilgan buyum, santimetr lenta, andoza, chizg'ich va qaychi;	
8	Zumrad va Qimmat ertak qahramonlarini bir qutiga yoki savatga solishingiz mumkin. Biz esa bu syujetli qahramonlarini karton qog'ozdan tayyorlagan qutimizga soldik.	Oldindan tayyorlangan Karton quti, tikilgan buyum, santimetr lenta, andoza, chizg'ich va qaychi;	

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Ayiqcha o'yinchog'i uchun andoza tayyorlang.
2. Gazlamadan ayiqcha yumshoq o'yinchog'ini tiking

6-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: “SANOQ SONLARI” KO‘RGAZMALI QUROLINI TAYYORLASH

Mavzuga oid tayanch iboralar: rangli qog‘oz to‘plami, chizg‘ich, qaychi, qalam, gofrirovka qilingan qog‘oz, sochiq, karton, PVA yelimi, pegetelerden gullar, organza, ko‘rgazmali qurol.

Maqsad: Talabalarga karton va uning turlari haqida ma’lumot berish va kartondan ko‘rgazmali qurollar tayyorlash texnologiyasini o‘rgatish

Kerakli materiallari va ish qurollarini tayyorlash: Metodik qo‘llanmalar, slaydlar, ko‘rgazmalar, karton qog‘ozi, turli rangli qog‘oz, chizg‘ich, qaychi, qalam, flomaster, skoch, sirkul, bolt

Ko‘rgazmalar: Metodik qo‘llanmalar, slaydlar, turli rasmlar, kartondan yasalgan ko‘rgazmali quroldan namunalar (—Telefon, —Olmali daraxt, —O‘yla, izla, top)

Ish joyini to‘g‘ri tashkil etish: O‘qituvchi stolning ustiga skater yoki dasturxon yozib, o‘ng tomoniga qaychi, elim uchun cho‘tka, chizg‘ich, qalam, o‘chirg‘ich joylashtiriladi. O‘quvchini old tomoniga elim, qiyqimlar uchun quticha va latta joylashtiriladi. O‘quvchining chap tomoniga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog‘oz to‘plamini, qog‘oz to‘plamini va kerakli materiallar joylashtiriladi. Ish jarayonida sanitarik-gigienik talablarga va ish qurollaridan foydalanish qoidalariga rioya etish kerak

“Sanoq sonlari” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash amaliy mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Jadval – 6.1.

Faoliyat bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash	Kichik guruhlarni tashkil etishadi; Savollarga javob

	mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakllantiradi. Ma'lumotlar umumlashtiradi va amaliy mashg'ulot bosqichiga o'tilishi ma'lum qiladi.	beradilar; Mavzu bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladi; Amaliy ishga tayyorlanadi.
2. Mavzuni ishlash bosqichi	“Sanoq sonlari” ko'rgazmali qurolini tayyorlash mavzusi bo'yicha yo'nalish beradi. Talabalar faoliyatini tashkil qiladi, kuzatadi, maslahatlar beradi, yo'naltiradi. Amaliy ishni yakunlab taqdimot boshlanishini e'lon qiladi va amaliy ishlarini taqdim qilishlarini aytadi. Savollarini berishlarini aytadi. Savollarga javob beradi va qisqacha xulosalar qiladi	Topshiriqlar bo'yicha faoliyatni boshlaydi. ko'rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasini o'rganadi; Amaliy ish bilan shug'ullanadi; Talabalar o'z ishlarini taqdim qiladilar; Savollar beradilar;
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar

		chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya beradi. Qo‘shimcha savollar beradi; Javoblarini eshitadi va umumlashtiradi.	Har bir talaba o‘z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axborotlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Amaliy ish yuzasidan savollarga javob beradi; Mustaqil ish yuzasidan maslahatlar beradi. Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Amaliy ish yuzasidan savollar beradi; Mustaqil ish topshiriqlarni yozib oladilar. Ishni himoya qiladi va o‘z-o‘zini baholaydi.

Taqdimotni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Jadval – 6.2.

Guruhlar	Baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari			
	Ish joyini to‘g‘ri tashkil etilishi	Savollarga javob berish	“Sanoq sonlari” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash	Jami
1-guruh				
2-guruh				
3-guruh				

Talabalarning kartondan yasaladigan ko'rgazmali qurollar haqidagi bilimlarini aniqlash;

Ish joyini to'g'ri tashkil qilish bo'yicha ma'lumotlar berish;

- Karton qog'ozi va uning turlari haqida tushunchalar berish;

- Kartondan turli ko'rgazmali qurollarni tayyorlash va ulardan foydalanish haqida tasavvurlarini shakllantirish

- Kartondan "Sanoq sonlari" ko'rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasini o'rgatish.

Mashg'ulotni boshlashdan oldin o'quvchilarni bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun savollar beriladi.

"Aqliy hujum" metodi

1. Kartondan ko'rgazmali qurol tayyorlash uchun ish joyini tashkil qilish fanday amalga oshiriladi?

2. Nima uchun darslarda ko'rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aytiladi?

3. Yana qanday ko'rgazmali qurollarni bilasiz?

4. O'z qo'limiz bilan qanday ko'rgazmali qurollarni tayyorlashimiz mumkin?

5. Ko'rgazmali qurolni tayyorlash o'quvchilarning qaysi tomonlarini rivojlantiradi va takomillashtiradi?

6. Kartondan tayyorlanadigan yana qanday ko'rgazmali qurollarni bilasiz?

7. Ko'rgazmali qurol turlari va ulardan foydalanish yo'llari?

8. Kartondan ko'rgazmali qurol tayyorlash uchun ish joyini tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?

9. Karton qog'ozi deb qanday qog'ozga aytiladi?

10. Kartonning xususiyatlari qanday?

11. Kartonning qanday turlari mavjud?

Ko'rgazmali qurollardan boshlang'ich sinflarning barcha fanlarida qo'llaniladi. Ko'rgazmali qurollar darslarni samarali tashkil etishga va o'quvchilarni egallanayotgan bilimlarni mustahkam egallashga yordam berdi.

Ko'rgazmali qurollarni tayyorlashni o'quvchilarning o'zlari ham bajarish mumkin. Bu egallagan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Trafaret — naqsh, harf, son, topografik belgilar, mashina va qurilmalarning shartli grafik belgilari va boshqa andazasi; rangdor tasvir yoki naqshni shakllantirishda uning u yoki bu qismini ko'p marotaba takrorlanishiga mo'ljallangan moslama; axta. Trafaret o'ziga xos teshiklari bo'lgan metall, yog'och karton, plastmassa va boshqa plastina bo'lib, shu teshikchalar orqali naqsh yoki tasvir bezatiladigan sirt (yuza)ga bo'yoqlar va boshqa surtib tushiriladi. Badiiy kashtado'zlik, to'qimachilik va qog'oz ishlab chiqarishda, ba'zan kulollik buyumlarini trafaret bosma usulida bezashda keng qo'llanadi. Andoza shablon bo'lib, mazkur tasvirni yoki sonni oldindan tayyor bo'lgan andoza orqali bir necha marta qog'ozga tushurish jarayonidir.

Raqamlar yasash usullari qanday?

- Raqamlar ko'p sonli kartondan trafaret, shablon kesilishi mumkin va sizning tasavvuringiz va manbalarangiz qodir bo'lgan narsalar bilan bezatilishi mumkin.

- Asoslari uchun, afzal o'lchamdagi oddiy karton qutini olaylik. Kerakli raqamning konturlari kartonda ko'rsatilgan. Shakl xizmatchiga pichoq bilan kesilgan va bezatilgan. Bunday raqam tekis bo'ladi. Uni devorga osib qo'yish mumkin.

- Agar sizga volumetrik raqam kerak bo'lsa yoki sizning vaqtingiz va xohishingiz bo'lsa, unda tug'ilgan kunni istagan odam o'ynashi va joyidan boshqa joyga o'zgartirishi mumkin bo'lgan figurani yasash yaxshiroqdir.

- Shaklni hajmli qilish uchun sizga ikkita bir xil karton blankalar kerak bo'ladi. Biroq, bundan tashqari, yon devorlarni yopishtirish uchun uzun qirrali (bir xil kenglikdagi) karton chiziqlarni kesish kerak bo'ladi.

Ramka osongina termal qurol yoki niqob tasmasi bilan biriktiriladi.



Rasm – 6.1.

Dekor shakllari umumiy dizayn uslubiga muvofiq tanlanishi kerak. Eng ko‘p ishlatiladigan materiallar:

- to‘qmoq
- rangli ip
- yorqin mato (organza, shifon, atlas, baxmal)
- qadoqlash uchun ishlatiladigan floristik film
- rangli qog‘oz
- gofrirovka qilingan qog‘oz
- peçetelerden gullar

Ushbu materiallarning barchasi poydevorni o‘rash uchun ishlatiladi. Ammo siz ulardan raqamlarga qo‘shimcha hajm berish uchun foydalanishingiz mumkin. Buning uchun siz qog‘ozdan yoki matodan yaproq barglari bilan gullar qilishingiz yoki jun iplardan bekamu ko‘st pomponlar qilishingiz, turli xil "funtlar" va kamonlar qo‘shishingiz kerak.

Taqdimotni baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Amaliy mashgʻulotda FSMU Metodni amalga oshirish tartibi: -
qatnashchilarga mavzuga oid boʻlgan yakuniy xulosa yoki gʻoya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU
metodining bosqichlari yozilgan qogʻozlari tarqatiladi:

Ф	• фикрингизни баён этинг
С	• фикрингизни баёнига сабаб кўрсатинг
М	• кўрсатган сабабингизни исботлаб мисол келтиринг
У	• фикрингизни умумлаштиринг

Rasm – 6.2.

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi. FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli oʻzlashtirilishiga asosboʻladi.

Namuna.Fikr: —Origami

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

Amaliy mashgʻulotlarda oʻquvchilar qogʻoz bilan ishlash, qogʻozga ishlov berish usullari, qogʻozni buklay usullari, qogʻozni ketma-ket usulda buklay maketlar yasash, qogʻozni oddiy usullarda buklay maketlar yasash, qogʻozni murakkab usullarda buklay maketlar yasash kabi ish turlaridan bilim, koʻnikma va malakalarini hosil qiladilar.


Bir sonini Ishlab chiqarish jarayoni:

- Biz peçete gullarini cheksiz miqdorda kesib tashlaymiz: toʻrt qavatli bir qavatli peçete 4 ta kvadratga boʻling

- Kvadratlarni teng qoziqqa joylashtiramiz va oʻrtada zimba yoki yupqa sim bilan mahkamlaymiz
- Doira qilish uchun kvadrat qoziq kesib olamiz.
- Olingan aylananing chekkalarini kesib olamiz, markazga etib bormasdan.
- Salfetka barglarini koʻtaring va ularni tekislang.
- Shunday qilib, biz bekamu-koʻst gullarni yaratamiz, shundan keyingina poydevorga PVA yelim bilan yopishtirish kerak boʻladi




Rasm – 6.3.




Rasm – 6.4.



Rasm – 6.5.



Rasm – 6.6.




Rasm – 6.7.






Rasm – 6.7.


“Sanoq son” ko‘rgazmali qurolini yasash texnologik xaritasi:

Jadval – 6.3.

T/r	Ishning borishi:	Kerakli asbob va moslamalar:	Andozalar:
1	Sanoq son ko‘rgazmali qurolimiz uchun karton qog‘oz, rangli qalam, oq yoki rangli qog‘oz, chiqindi mahsulotlari(Baklashka qopqog‘i) kerak bo‘ladi. Karton qog‘ozni diametri 30 radiusi 15 sm li aylana chizib qirqib olamiz.	santimetr lenta, serkul, qora qalam va qaychi;	
2	Oq varoqni olib baklashka qopqog‘i yordamida 12 ta aylana chizib olamiz	santimetr lenta, qora qalam	

3	Tayyor bo'lgan 12 ta teng aylanamizning ichiga 1 raqamidan 12 raqamigacha rangli qalamda yozib chiqamiz	santimetr lenta, rangli qalam	
4	Endi raqamli aylanalarimizni qaychi yordamida birin ketin qirqib olamiz	santimetr lenta, qalam va qaychi;	
5	12 ta baklashka qopqog'ini ichiga raqamli aylanalarimizni pistalet kley yordamida yopishtiramiz. Sanoq sonli raqamlarimiz tayyor bo'ladi.	santimetr lenta, pistalet, pistalet kleyi va qaychi;	
6	Sanoq sonli raqamlarimizni oldindan tayyorlab qo'yilgan Karton qog'ozimizga huddi soat shaklida aylana chetlariga yopishtiramiz.	santimetr lenta, pistalet, pistalet kleyi va qaychi;	
7	Rangli qog'ozni hohlagan rangingizda foydalangan holda ko'rsatkich belgi yasab olamiz.	santimetr lenta, chizg'ich va qaychi;	

8	Spinner o'yinchog'imizga kesib tayyorlagan ko'rsatgich belgimizni 3 qismidan faqat 1 ta qismiga ko'rsatish belgisini tashqi tomonga qilib yopishtiramiz.	Spinner, santimetr lenta, pistalet, pistalet kleyi	
9	Tayyor sanoq sonli ko'rgazmamizning ya'ni soat shaklli aylanamizning markaziga spinnerni yopishtiramiz	Spinner, santimetr lenta, pistalet, pistalet kleyi	
10	Endi oq varoqqa qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar o'z savollarimizni yozishimiz mumkin. Biz matematika fanidan qo'shish va ayirishga oid material tayyorlab oldik	santimetr lenta, chizg'ich, qalam va qaychi;	
11	Materiallarni qo'shish va tenglik qismli hamda ayirish va tenglik qismli tayyorladik. Sanoq sonli ko'rgazmamizni tayyorlab bo'ldik	santimetr lenta, chizg'ich, qalam va qaychi;	

12	Tayyor natijamiz Spinnerni aylantiramiz qaysi sanoq son tushsa uni qo'shish yoki ayirish misolimizga yozamiz yana aylantiramiz va qaysi son bo'lishidan qat'iy nazar misolga yozamiz hamda o'quvchilarimiz bu misolni javobini hisob-kitob qilishadi.	santimetr lenta, chizg'ich, qalam va qaychi;	
----	--	---	--

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Telefon ko'rgazmali qurolini tayyorlash
2. „Olmali daraxt“ ko'rgazmali materialni tayyorlash
3. “Uzum” metodi ko'rgazmasini tayyorlash
4. “Bogirsoq” ertagi asosida ko'rgazmali metodini tayyorlash.
5. “Bilimdon baliqcha” korgazmali metodini tayyorlash.

Texnologiya ta'limi va uni o'qitish metodikasi fanidan test savollari

O'zbekiston Respublikasining — “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining maqsadi nima?
fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslari belgilangan
O‘zbekistondagi ta’lim turlari belgilab berilgan
ta’lim jarayonini tashkil etish talablari ko‘rsatilgan
sifatli ta’limni tashkil qilish

“Metod”-bu...
metod-bu yunoncha —yo‘l-yo‘riq usul orqali maqsadga erishishdir
metod-bu grekcha so‘zdan olingan bo‘lib uslub demakdir
metod-bu lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, axborotni uzatish demakdir
hamma javoblar to‘g‘ri

O‘qitish metodlarini tanlash nimalarga bog‘liq?
o‘quv materialining mantiqiy yo‘nalishi, mazmuni va mustaqil ish xarakteriga bog‘liq
mashg‘ulot turi va tipiga
mashg‘ulot mavzusiga
o‘qituvchi bilimiga

Amaliy ishlar metodiga kiradi...
mashq, laboratoriya, amaliy ishlar
ma’ruza, laboratoriya
laboratoriya, hikoya, suhbat
Ma’ruza, hikoya

1-4 sinflarda mehnat ta'limining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda.....iborat

inson uchun mehnat 1-zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilim kerakligiga ishonch hosil qilishdan.
ijtimoiy burch ekanligidan
har qanday kasbni egallash mumkinligidan
chuqur bilim kerak emasligidan

Mehnat tarbiyasi bu...?
shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon.
maktablarda mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslarini o'qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini o'rgatishdan iborat.
o'qitish vositalari va o'qitish tizimi omillari bilan belgilanadi
o'quvchilarda pedagogik psixologik bilimlarni umummehnat, kasb tanlashga yo'llash va umum kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoniga tatbiq etish;

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi fanini o'qitishdan maqsad nimadan iborat?
umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan texnologiya fani metodologiyasini, texnologiya darslarida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirish
milliy istiqlol g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs
texnologiya, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchisi sifatida shakllantirishdir.
hamma javoblar to'g'ri

Texnologiya qaysi tildan olingan va qanday ma'noni bildiradi?
yunoncha «texno» - san'at va «logos» - o'rganishdan
lotincha —techno—hunar, usta va —logos —fan ta'lim
lotincha —techno—ta'lim va —logos —hunar
yunoncha —techno—fan va —logos —ta'lim

Karton qanday qog'oz?
1 kv. metri 250 grammdan ortiq qog'oz
Og'irligi 500 grammlig qog'oz
Bukilishi va qir qilishi qiyin qog'oz
Og'irligi 150 gramm bo'lgan qog'oz

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi qaysi fanlar bilan aloqador?
yoshlar gigiyenasi va fiziologiyasi, psixologiya
yoshlar gigiyenasi va fiziologiyasi
psixologiya, yoshlar fiziologiyasi
to'g'ri javob yo'q.

Texnologiya ta'limida nechta ish turi mavjud?
5 ta ish turi
3 ta ish turi
10 ta ish turi
7 ta ish turi

Mehnat ta'limi bo'yicha boshlang'ich sinflarda qanday materiallardan foydalaniladi?
tabiiy materiallardan, qog'oz, kartonlardan buyumlar yasaydi
yog'och va materiallarga ishlov berish
pazandachilik ishlari bilan shug'ullanish

hammasi to'g'ri javob

Texnologiya fanidan dars rejasi qanday tuziladi ?
--

dars o'tiladigan kun, mavzu, maqsadii, ish ob'ekti, jihoz va materiallar, darsning borishi, darsning tashkiliy qismi, o'tgan dasrni mustahkamlash, yangi mavzuni bayon qilish, kirish, joriy, yakuniy instruktajlar, uyga vazifa, foydalanilgan adabiyotlar.
--

mavzuni rejaga binoan faqat yangi mavzuning bayoni yoritiladi .

hamma javoblar to'g'ri .

dars jarayonida o'qituvchining dasrni qanday tashkil etishi bayon etiladi .

Texnologiya fanidan fanlararo bog'lanish nima uchun kerak?

amaliy bilimni mustahkamlash uchun .

amaliy bilimlarni hayotda qo'llash uchun .
--

fanlar bilan mehnat ta'limining samaradorligini oshiradi .
--

fanlararo boshlanishni amalga oshirish nazariy bilimlarni turmush bilan bog'lashdan iborat.

Texnologiya fani o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarni ko'rsating?
--

ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, halollik, kamtarlik, qattiylik, dalillik, ma'suliyatlilik,

ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish

o'quvchilar ichida xavfiszlikni ta'minlash.

ta'lim-tarbiya vazifalarini, o'quv materiallarini to'g'ri tanlash .

o'quv dastgohlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish .
--

Texnologik karta tuzishning mohiyatini tushuntiring?

ishning mazmuni va bajarilishi, ishlov bo'yicha eskizi, instruktiv ko'rsatmalar

maket tayyorlashda ishlatiladi
buyum tayyorlashning mazmuni
to'g'ri javob yo'q.

O'quv ustaxonasiga qanday talablar qo'yiladi
sanitariya gigiyena talablariga javob beradi, dasturdagi mavzular o'rganish uchun sharoit yaratiladi. Davr talabi asosida jihozlangan, zaruriy materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak
sanitariya va gigiyena talablariga javob beradi .
xonalar zaruriy materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak
barcha javoblar to'g'ri

Mehnatga axloqiy tayyorlash nima.
Bolalarga jamoada ishlani, o'zaro do'stona yordamni, ijodiy tashabbuskorlikni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishdan iborat.
o'quvchilarni mehnat natijalariga hurmat bilan yondashishlari nazarda tutiladi.
mehnat ta'limi va tarbiyasi bilan o'quvchilarni mehnatga tayyorlash.
o'quvchilarni mehnat kishilariga va mehnat natijalariga yaxshi munosabatda bo'lish.

Hoja Bahovuddin Naqshbandiy mehnat to'g'risida qanday maqol aytgan.
dil bayoru dast bakor, ya'ni diling allohdada, qo'ling doim mehnatda bo'lsin.
hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir, yopiq eshiklarni ochar birma-bir.
mehnatdan kelsa boylik, turmush bulur chiroylik
inson bo'lib dunyoga keldingmi? Biron-bir kasb egalla, hunar o'rgan.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda qanday ish turlari bor.
turli materiallar bilan ishlash, gazlama bilan ishlash, loyihallash va modellash ishlari,

qishloq xo‘jalik ishlari, qog‘oz va karton bilan ishlash.
turli materiallar, gazlama bilan ishlash, qishloq xo‘jalik ishlari.
gazlama, turli materiallar, qog‘oz va karton, loy va plastilin.
applikatsiya va mozaika ishlar, qog‘oz va karton bilan ishlash.

Turli materiallar bilan ishlashga qanday mehnat turlari kiradi.
applikatsiya va mozaika, loy va plastilin, tabiiy materiallar.
applikatsiya va mozaika, pape-mashe, qog‘oz va karton
tabiiy materiallar, loy va plastilin, qog‘oz va karton.
loy va plastilin, qog‘oz va karton, applikatsiya va mozaika, pape-mashe.

Qog‘ozdan maketlar yasaganda nimalarga e‘tibor berish kerak.
qog‘ozning sifatiga, buklay chiziqlariga, qog‘ozning shakliga, to‘g‘ri buklayga.
qog‘ozning sifatiga, buklay chiziqlariga.
qog‘ozning shakliga buklay yo‘nalishiga, to‘g‘ri buklayga.
qog‘ozning turlariga, qog‘ozning rangiga.

Rasm qog‘ozi qanday tayyorlanadi.
25% latta qo‘shilgan stilyulozadan.
lattadan tayyorlanadi.
yog‘och qipqlaridan tayyorlanadi.
yelim aralashtirilgan yog‘och qipqlaridan.

Qanaqa karton turlari mavjud.
oq, sariq, kulrang, rangli karton.
oq, sariq, kulrang karton.
rangli karton turlari mavjud.

bir xil karton.

Mehnat nima?

maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyat boʻlib, bunda u tabiatga tasir qilib, undan oʻz moddiy ehtiyojlarini qondirish.

fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, mehnat odam uchun kerakli va zarur boʻlgan narsa.

inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun asosidir.

tana aʼzolari orqali tabiatga taʼsir qilib undan oʻziga kerakli maqsadda foydalanish.

Mehnatga amaliy tayyorlash nima.

asbob va uskunalardan foydalana bilish, materialga ishlov bera olish, xatoni oʻz vaqtida aniqlash va toʻgʻrilay olish.

mehnat taʼlimining muhim omillaridan biridir.

asbob va materiallarga ishlov bera olish.

mehnat malaka va koʻnikmalarini shakllantirish.

Applikatsiya qachon paydo boʻlgan.

applikatstiya eramizdan 2500 yil muqaddam paydo boʻlgan.

19 asrda paydo boʻlgan.

eramizdan avvalgi 2500 yil muqaddam paydo boʻlgan.

eramizdan avvalgi 16 asrda paydo boʻlgan.

Applikatsiyani asosiy materiallari.

Qogʻoz va mato, samon, quritilgan oʻsimlik barglari, urugʻlar va danak poʻchogʻlari.

Qogʻoz, mato va boshqalar.

Somon, quritilgan oʻsimlik barglari va urugʻlar.

Rangli qog‘oz.

Dekorativ applikastiya nima.

Alohida tasvirlardan tashkil topuvchi predmetli hodisa.

Shakliga ko‘ra ornamental syujet.

Harakatlar uyg‘unligini aks ettiruvchi syujet.
--

Bir va ko‘p rangli applikastiyalar.

Geometrik figuralardan predmetli applikatstiyalar.

ayrim predmetlarni detalma-detal tahlil qilib geometrik shakllarni to‘g‘ri idrok etish.

geometrik shaklli applikatstiyalarni syujetli applikatstiyalarga ajratish.
--

geometrik figuralardan predmetlarni fazoviy idrok etishni o‘rganish.
--

geometrik shakllarni fazoviy tasvirlash.
--

Texnologiya ta’limi darslarida qog‘ozdan stakanча yasash mashg‘uloti qanday amalga oshiriladi?

Buklash orqali

Qirqish orqali

Qog‘ozni qirqish va yelimlash orqali

Yelimlash orqali

A.Navoiy fikricha, “Inson bo‘lib dunyoga keldingmi?”

Biron-bir kasb egalla, hunar o‘rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o‘tmaysan.
--

O‘z mehnatidan non egan kishi hatom minnatidan ozod yoz qishi

Hunar o‘rgan, chunki hunarda ko‘p sir, yopiq eshiklarni ochar birma-bir.
--

Qo‘ling doim mehnatda, diling doim ollohda bo‘lsin.

Texnologiya qaysi tildan olingan va qanday maʼnoni bildiradi.
yunoncha —techno -hunar, usta va —logos –fan taʼlim
lotincha —techno -hunar, usta va —logos –fan taʼlim
lotincha —techno -taʼlim va —logos –hunar
yunoncha —techno -fan va —logos –taʼlim

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining oʻquv rejasida Texnologiya faniga 1 -4-sinflarda haftasiga necha soatdan oʻtiladi?
Haftasiga 1 soatdan
Haftasiga 2 soatdan
Haftasiga 3 soatdan
Haftasiga 4 soatdan

Darsning taʼlimiy maqsadiga qaysi bir taʼrif kiradi?
Oʻquvchilarda yangi atamalarga oid tushunchalarni shakllantirish;
Oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish
Oʻquvchilarning tasavvuri, xotirasi, kuzatuvchanligi, tafakkuri, nutqi, oʻquv jarayonida koʻnikma, oʻquv malakalarini shakllantirish va ularni rivojlantirish;
Taʼlimning koʻrgazmali va texnik vositalarini qoʻshib hisoblaganda darsni oʻtkazish zarur boʻlgan oʻquv qurollari;

Darsning tarbiyaviy maqsadiga qaysi bir taʼrif kiradi?
Oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish
Oʻquvchilarda yangi atamalarga oid tushunchalarni shakllantirish;
Oʻquvchilarning tasavvuri, xotirasi, kuzatuvchanligi, tafakkuri, nutqi, oʻquv jarayonida koʻnikma, oʻquv malakalarini shakllantirish va ularni rivojlantirish;
Darsda bevosita oʻtkaziladigan test sinovlari; uy vazifalari, topshiriqlar

Texnologiya 1-sinf darsligining muallifi kimlar?
X.R.Sanakulov,D.P.Xodiyeva,A.R.Sanakulova
D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva.
I.Mannopova,D.Sayfurov
X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva

Texnologiya 2-sinf darslikligining muallifi kimlar?
X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva
D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva.
X.R.Sanakulov,D.P.Xodiyeva,A.R.Sanakulova
I.Mannopova,D.Sayfurov

Texnologiya 3-sinf darslikligining muallifi kimlar?
X.R.Sanakulov,D.P.Xodiyeva,A.R.Sanakulova
D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva.
X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva
I.Mannopova,D.Sayfurov

Texnologiya 4-sinf darslikligining muallifi kimlar?
X.R.Sanakulov,D.P.Xodiyeva,A.R.Sanakulova
D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva.
I.Mannopova,D.Sayfurov
X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Toshkent, 2020 y .
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: — O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr — O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-son Farmoni.
5. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Boshlang'ich sinflarda qog'ozdan amaliy ishlar. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: Navro'z. 2013-yil.
6. Sanoqulov X.R., Xodiyeva D.P., Satbaeva M. —Mehnat va uni o'qitish metodikasi Darslik. – T.:TDPU. 2015-yil.
7. Mavlonova R.A, Sanoqulov X.R, Xodiyeva D.P —Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. 2007yil TDPU.
8. Texnologiya 1-sinf: darslik /D. S. Miraxmedova, Z. S. Shamsiyeva. Toshkent, Respublika ta'lim markazi. 2021. – 72 b.
9. Texnologiya 2-sinf: darslik / X. R. Sanakulov, D. X. Abdiyeva. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 80 b.
10. Texnologiya 3-sinf uchun darslik/ X.R.Sanakulov, D.P.Xodiyeva, A.R.Sanakulova. -T.:«Sharq», 2019.-80b.
11. Texnologiya 4-sinf: darslik/ I.Mannopova, D.Sayfurov O'qituvchil NMIM, 2020
12. Matlab Tilavova —Texnologiya va uni o'qitish metodikasi. Toshkent —Muharrir nashriyoti. 2019
13. Umarov, R. T., & Sh, S. (2023). Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishning tizimi. Образование наука и инновационные идеи в мире, 18(8), 101-106.

14. Sovurova, S. (2022). Umumta'lim maktablarda xalq hunarmandchiligini o'qitishning ayrim masalalari. Физико-технологического образование, (6).
15. Sovurova, S. (2022). Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ayrim jihatlari. Физико-технологического образование, (6).
16. Sovurova, S., & Sovurov, M. (2021). Zamonaviy o'qituvchi faoliyatida pedagogik mahoratning o'rnini. Физико-технологического образование, 5(5).
17. Sovurova, S., & Sovurov, M. (2021). Ta'limda kreativ pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ayrim uslublari. Физико-технологического образование, 7(7).
18. Isakova, S., & Akhmedov, I. (2019). Педагогической эффективности проведения лабораторных работ с малогабаритными самодельными универсальными установками. Theoretical & Applied Science, (11), 153-160.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-amaliy mashg‘ulot. Mavzu: Qog‘ozni murakkab usulda buklab maketlar yasash.....	6
2-amaliy mashg‘ulot. Mavzu: Turli materiallardan archa bezaklarini yasash	12
3-amaliy mashg‘ulot. Mavzu: Ertak qahramonlari asosida sujetli applikatsiya tayyorlash	18
4-amaliy mashg‘ulot. Mavzu: Ish fartugi va sumkani tikish texnologiyasi	25
5-amaliy mashg‘ulot. Mavzu: Gazlamadan qo‘g‘irchoq tikish	31
6-amaliy mashg‘ulot. Mavzu: “Sanoq sonlari” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash	40
Test savollari	54
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	64